



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

INTERTEKSTUAL BOG‘LANISHLARNING LINGVISTIK VA ADABIY TALQINI

Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada intertekstual bog‘lanishlarning lingvistik va adabiy talqini Tohir Malikning “Shaytanat” romani misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda intertekstuallik badiiy matnning mazmuniy, estetik va pragmatik qatlamlarini boyituvchi muhim hodisa sifatida yoritiladi. Asarda uchraydigan barqaror birikmalar, iboralar, maqollar, folklor namunalari, diniy-ma’rifiy ishoralar hamda mashhur ijodkorlarga murojaatlar intertekstual birlik sifatida o‘rganiladi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Shaytanat” romanida intertekstuallik obrazlar karakterini ochish, xalqona ruhni kuchaytirish, yashirin ma’no va kinoyaviy tagma’nolarni yuzaga chiqarishda muhim lingvopoetik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: intertekstuallik, intertekstual bog‘lanish, badiiy matn, lingvistik tahlil, frazeologik birlik, maqol, folklor, allyuziya, pragmatika, Tohir Malik.

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ И ЛИТЕРАТУРНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНЫХ СВЯЗЕЙ

Рузматова Гульнара Кулматовна

Каттакурганский государственный педагогический институт, преподаватель

Аннотация

В данной статье рассматривается лингвистическая и литературная интерпретация интертекстуальных связей на примере романа Тахира Малика “Шайтанат”. В исследовании интертекстуальность раскрывается как важное явление, обогащающее содержательные, эстетические и прагматические уровни художественного текста. Устойчивые выражения, фразеологизмы, пословицы, фольклорные элементы, религиозно-просветительские отсылки, а также обращения к известным авторам анализируются как интертекстуальные единицы. Результаты анализа показывают, что в романе “Шайтанат” интертекстуальность служит важным лингвопоэтическим средством раскрытия характеров персонажей, усиления народного духа, выражения скрытого смысла, иронии и подтекста.

Ключевые слова: интертекстуальность, интертекстуальная связь, художественный текст, лингвистический анализ, фразеологическая единица, пословица, фольклор, аллюзия, прагматика, Тахир Малик.

LINGUISTIC AND LITERARY INTERPRETATION OF INTERTEXTUAL RELATIONS

Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna

Kattakurgan State Pedagogical Institute, Lecturer

Abstract

This article analyzes the linguistic and literary interpretation of intertextual connections in Tohir Malik’s novel “Shaytanat”. The study examines intertextuality as an important phenomenon that enriches the semantic, aesthetic and pragmatic layers of a literary text. Stable expressions, phraseological units, proverbs, folklore elements, religious and educational references, as well as allusions to famous writers are studied as intertextual units. The results of the analysis show that intertextuality in “Shaytanat” serves as an important linguopoetic device for revealing characters, strengthening the national and folk spirit, and expressing hidden meanings, irony and subtext.

Keywords: intertextuality, intertextual connection, literary text, linguistic analysis, phraseological unit, proverb, folklore, allusion, pragmatics, Tohir Malik.

Matn va intermatn nazariyasi antik zamonlardan raqamli tajribalar davrigacha bo‘lgan murakkab yo‘lni bosib o‘tdi va matnning alohida tadqiqot obyekti deb tushunilishi uzoq vaqt mobaynida fanda ustuvor maqomda bo‘lib keldi. XX asrda tilshunoslikda strukturalizm va poststrukturalizm, adabiyotshunoslikda modernizm va postmodernizm, falsafada dekonstruktivizm kabi sohalar taraqqiy etgani hamda ularning ta’siri ostida matn alohida, avtonom mavjud bo‘lolmasligi, har qanday matn boshqa matnlar bilan o‘zaro aloqa va o‘zaro ta’sirda mavjudligi g‘oyasi vujudga keldi.

Zamonaviy filologiyada intertekstual bog‘lanish va intertekstual hodisa tushunchalarini farqlash

muhim hisoblanadi. Intertekstual bog‘lanish tadqiqotchilar tomonidan, asosan, badiiy matnning chuqur ma‘nosini ochishga xizmat qiluvchi, boshqa matnlar bilan o‘zaro dialogik aloqasi sifatida izohlanadi. Ya‘ni asliy matnida oldingi yoki boshqa matnlarga murojaat qilish, ulardan ma‘no, obraz, g‘oya yoki uslubiy birliklarni qayta ishlash orqali yangi badiiy mazmun yuzaga keladi.

Tilshunoslik va adabiyotshunoslik yo‘nalishlarida olib borilgan tadqiqotlarda boshqa matnlar elementlarini o‘zida mujassamlashtirgan hamda keyingi matnlar uchun manba vazifasini bajaradigan matn “intertekstual makon” doirasida doimiy hodisa va keng qamrovli nazariy kategoriya sifatida talqin etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

“Intertekstuallik” atamasi “inter” — o‘rta, “tekst” — matn so‘zlarining birikuvidan hosil bo‘lgan bo‘lib, matn ichida keladigan matnni anglatadi. Intertekstuallik atamasi jahon tilshunosligi va o‘zbek tilshunosligida bir qancha olim va tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan va tahlil qilingan. Uni fanga olib kirgan Y. Kristeva intertekstuallik hodisasi asosan ilmiy va badiiy matnda uchrashini ta‘kidlab, ko‘proq badiiy matndagi intertekstuallik tamoyiliga urg‘u beradi [1].

Biroq filologiyada intertekstual hodisa tushunchasini yagona va qat‘iy ma‘noda talqin qilish masalasi hanuz to‘liq shakllanmagan. Mazkur nazariyaning rivojlanish jarayoni davom etayotganini ko‘rsatadi. Hozirgi jahon adabiyotshunosligida intertekstual hodisa quyidagi jihatlar orqali tushuntiriladi:

Avval yaratilgan matnlar izlari sezilib turadigan har qanday badiiy matn;

Boshqa matnlardan olingan iqtibos, ishora, reminissensiya va obrazlar asosida shakllangan badiiy qurilish usuli;

Mavjud matnlar o‘rtasidagi umumiy ma‘naviy, g‘oyaviy va estetik aloqalar tizimi;

Matnning diskursiv tuzilishida boshqa matnlar bilan bog‘lanish darajasini ifodalovchi nazariy hodisa.

Pege-Gro o‘zining “Intermatnlik nazariyasiga kirish” nomli asarida intermatnlikni bir matnning boshqa matn bilan turli shakllarda bog‘lanishi va uni qayta aks ettirishi sifatida izohlaydi. Uning fikricha, intermatn muayyan asar tarkibida ochiq yoki yashirin tarzda ishtirok etadigan, asar mazmuni bilan bevosita yoki bilvosita aloqador bo‘lgan matnlar majmuidir [2].

L. Muzaffarovaning fikricha, zamonaviy filologiyada intertekstual tadqiqotlar keng istiqbolga ega bo‘lib, ular matnni, ayniqsa, badiiy matnni chuqurroq talqin qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, intertekstuallik matnning asosiy kategoriyalaridan biri sanaladi. Uning ifodalanish shakllari sifatida iqtibos, ishora, parodiya kabi vositalar ajralib turadi.

Badiiy matn tahlilida turli yozuvchi va shoirlar ijodida uchraydigan intertekstual birliklarni o‘rganish mumkin. Xususan, Tohir Malik asarlarida ham intertekstuallik unsurlaridan samarali va maqsadga muvofiq foydalanilganini ko‘rish mumkin. Yozuvchining “Shaytanat” romanida uchraydigan intertekstual aloqalar, asosan, bir necha manbalar asosida shakllangan. Ular qatoriga:

1. Muqaddas kitob va hadislar;
2. Barqaror birikmalar;
3. Xalq og‘zaki ijodi namunalari: afsona, doston, ertak, rivoyat va maqollar kiradi.

Shuningdek, romanda tarixiy voqea-hodisalarga ishora qiluvchi allyuziyalar hamda mashhur badiiy asarlar, ularning mualliflari va qahramonlariga bog‘liq ishoralar ham muhim o‘rin tutadi [3].

Tadqiqot metodologiyasi.

Intertekstual bog‘lanishlarning lingvistik va adabiy talqiniga bag‘ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning tilshunoslik sohasida qo‘llaniladigan chog‘ishtirma tahlil, analiz va sintez usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

“Shaytanat” romanida intertekstuallik hodisalari turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Asarda, ayniqsa, barqaror birikmalar, iboralar, maqollar, folklor namunalari hamda mashhur ijodkorlar va badiiy qahramonlarga ishora qiluvchi allyuziyalar faol qo‘llanganini ko‘rish mumkin.

Barqaror birikma va iboralar: “devorning qulog‘i bor”, “o‘zi pishirgan sho‘rvani o‘zi ichsin”, “gapimiz yerda qolmaydigan bo‘libdi”, “og‘zim oshga yetdi deganda boshi toshga tekkan”, “ko‘zni shamg‘alat qilmoqchi ekan”, “o‘rmini sovutma”, “tiling bir qarich”, “xom oshqovoq” kabi ifodalar obrazlarning ruhiy holatini, xarakterini va voqea-hodisalarga munosabatini ochishda xizmat qiladi.

Asarda maqollar ham intertekstual birlik sifatida qo‘llanadi. Jumladan, “hisobli do‘st ayrilmas”, “puling bo‘lsa, changalda sho‘rva” kabi maqollar xalq donishmandligini ifodalab, qahramonlarning fikrini qisqa, obrazli va ta‘sirchan shaklda yetkazishga yordam beradi.

Folklor namunalariga xos unsurlar ham uchraydi. Masalan, “O‘ynamasa kim o‘zganing nayiga, shum niyat-la tushadilar payiga” kabi qo‘shiq satrlari yoki Chuvrindi tilidan keltirilgan hikmatli voqea xalq

ogʻzaki ijodi anʼanalariga yaqin turadi [4].

Shuningdek, “Shaytanat”da mashhur badiiy asarlar, ijodkorlar va qahramonlarga ishora qiluvchi allyuziyalar ham mavjud. Masalan, “Shayton gʻolib, jon berarda shoshdim mano” tarzida Ahmad Yassaviy satrlariga murojaat qilinadi. Yana bir oʻrinda Yevripid nomi tilga olinib, uning ayol qalbi, nomus va xiyonat haqidagi fikrlariga ishora qilinadi.

Intertekstual aloqa leksik birliklar orqali yuzaga chiqadi. Romanda xalq orasida keng tarqalgan soʻz va ifodalar, diniy tushunchalar, tarixiy yoki adabiy nomlar matnga kiritilib, uning maʼno doirasini kengaytiradi. Masalan, “xudo bor”, “shayton”, “Ahmad Yassaviy”, “Yevripid” kabi birliklar oddiy nom yoki soʻz sifatida emas, balki muayyan madaniy, diniy va adabiy xotirani uygʻotuvchi belgilar sifatida xizmat qiladi.

Asarda intertekstual bogʻlanishlarning eng faol koʻrinishlaridan biri frazeologik birliklar orqali ifodalanadi. Masalan, “devorning qulogʻi bor”, “oʻzi pishirgan shoʻrvani oʻzi ichsin”, “gapimiz yerda qolmaydigan boʻlibdi”, “ogʻzim oshga yetdi deganda boshi toshga tekkan”, “koʻzni shamgʻalat qilmoq”, “tiling bir qarich”, “xom oshqovoq” kabi iboralar xalq nutqida shakllangan tayyor til birliklaridir. Bu iboralar matnga xalqona ruh beradi, qahramonlarning ijtimoiy muhitini, dunyoqarashini va ruhiy holatini ochishga yordam beradi. Shu jihatdan ular romanda xalq tafakkuri bilan bogʻliq intertekstual qatlamni hosil qiladi [5].

Romanda intertekstual bogʻlanishlar sintaktik birliklar orqali ham seziladi. Ayrim gaplar xalq ogʻzaki ijodiga xos ohangda, hikmatli soʻz yoki rivoyat shaklida quriladi. Masalan, Chuvrindi tilidan keltirilgan kichik hikmatli voqea — kambagʻal mamlakat rahbarlarining Amerikaga urush ochish haqidagi hikoyasi — tuzilish jihatidan latifa va rivoyatlarga yaqin. Unda voqea qisqa bayon qilinadi, oxirida esa kutilmagan xulosa orqali kinoyaviy maʼno yuzaga keladi.

Shuningdek, Ahmad Yassaviy satriga murojaat qilingan oʻrinlarda ham sintaktik va ritmik oʻxshashlik seziladi: “Shayton gʻolib, jon berarda shoshdim mano”. Bu parcha sheʼriy nutqqa xos tuzilishga ega boʻlib, roman matniga diniy-tasavvufiy ruh olib kiradi.

Pragmatik jihatdan bunday birliklar matnda ochiq aytilmagan, ammo oʻquvchi anglay oladigan yashirin maʼno, kinoya, tagmaʼno va baholovchi munosabatni hosil qiladi. Masalan, “devorning qulogʻi bor” iborasi oddiy devorning eshitishi haqida emas, balki jamiyatda qoʻrquv, kuzatuv, ishonchsizlik muhiti borligini anglatadi. “Puling boʻlsa, changalda shoʻrva” maqoli esa boylikning kuchini bildiradi, lekin yozuvchi uni inson hayoti va oʻlimi bilan bogʻlab, kinoyaviy maʼno hosil qiladi: pul koʻp narsaga yetishi mumkin, ammo jonni saqlab qola olmaydi [4].

Yevripid nomining keltirilishi ham pragmatik jihatdan muhim. Bu ishora orqali yozuvchi ayol qalbi, nomus, xiyonat va ruhiy iztirob masalalarini faqat mahalliy voqea sifatida emas, balki umumadabiy va umuminsoniy muammo sifatida talqin qiladi.

Tohir Malikning “Shaytanat” romanida intertekstual hodisasi matnning mazmuniy, lingvistik va pragmatik qatlamlarini boyituvchi muhim badiiy vosita sifatida namoyon boʻladi. Asarda qoʻllangan intertekstual birliklar yozuvchi uslubining xalqona, falsafiy va ijtimoiy-maʼnaviy mohiyatini ochishga xizmat qiladi [2].

1-Jadval

Tohir Malikning “Shaytanat” romanida intertekstual bogʻlanishlarning lingvistik ifodalanishi

Intertekstual birlik turi	Asardan misollar	Lingvistik xususiyati	Badiiy-pragmatik vazifasi
Leksik birliklar	“Xudo bor”, “shayton”, “Ahmad Yassaviy”, “Yevripid”	Diniy, tarixiy va adabiy nomlar orqali ifodalanadi	Matni diniy, madaniy va adabiy xotira bilan bogʻlaydi
Frazeologik birliklar	“devorning qulogʻi bor”, “oʻzi pishirgan shoʻrvani oʻzi ichsin”, “tiling bir qarich”, “xom oshqovoq”	Tayyor, koʻchma maʼnoli xalqona iboralar	Qahramon xarakteri, ruhiy holati va ijtimoiy muhitni ochadi
Maqollar	“hisobli doʻst ayrilmas”, “puling boʻlsa, changalda shoʻrva”	Xalq donishmandligiga asoslangan qisqa va obrazli birliklar	Voqeaga xalqona baho beradi, kinoyaviy maʼno hosil qiladi
Folklor unsurlari	“Oʻynamasa kim oʻzganing nayiga, shum niyat-la	Qoʻshiq, latifa va rivoyatga xos bayon	Matnga xalq ogʻzaki ijodi ohangini olib kiradi

	tushadilar payiga”; Chuvrindi aytgan hikmatli voqea	shakli	
Allyuziyalar	Ahmad Yassaviy satriga murojaat; Yevripid nomining tilga olinishi	Mashhur ijodkor yoki asarlarga ishora qilish orqali yuzaga keladi	Asar mazmunini umumadabiy va umuminsoniy kontekstda talqin qilishga yordam beradi
Sintaktik birliklar	Chuvrindi hikoyasidagi qisqa voqea va kutilmagan xulosa	Latifa va rivoyatga o‘xshash gap qurilishi	Kinoya, hajv va tagma‘noni kuchaytiradi
Pragmatik birliklar	“devorning qulog‘i bor”, “puling bo‘lsa, changalda sho‘rva”	Ochiq aytilmagan yashirin ma‘no va baholash munosabati mavjud	Qo‘rquv, ishonchsizlik, boylik va inson taqdiri haqidagi tagma‘noni ochadi

Leksik birliklar diniy va adabiy xotirani uyg‘otsa, frazeologik birliklar va maqollar xalq tafakkurini ifodalaydi. Folklor unsurlari romanga xalqona ohang bag‘ishlaydi, allyuziyalar esa asarni keng adabiy-madaniy kontekst bilan bog‘laydi. Sintaktik va pragmatik birliklar orqali esa yashirin ma‘no, kinoya, tagma‘no va muallifning baholovchi munosabati yuzaga chiqadi. Shu sababli intertekstual birliklar romanning badiiy-estetik ta‘sirchanligini oshiruvchi muhim lingvopoetik vosita sifatida baholanadi [1].

Xulosa.

Intertekstuallik badiiy matnning mazmuniy, lingvistik va estetik qatlamlarini chuqurroq ochishga xizmat qiluvchi muhim hodisa hisoblanadi. Matn va intermatn nazariyasining shakllanishi shuni ko‘rsatadiki, har qanday badiiy asar faqat mustaqil matn sifatida emas, balki avvalgi adabiy, diniy, folklor va madaniy manbalar bilan bog‘liq holda mavjud bo‘ladi. Lingvistik jihatdan qaralganda, “Shaytanat” romanidagi intertekstual bog‘lanishlar leksik, frazeologik, sintaktik va pragmatik birliklar orqali yuzaga chiqadi. Leksik birliklar diniy va adabiy xotirani uyg‘otsa, frazeologik birliklar xalqona nutqning obrazlilikini ta‘minlaydi. Sintaktik qurilmalar rivoyat, latifa va hikmatli so‘zlarga xos bayon uslubini eslatadi. Pragmatik birliklar esa matnda ochiq aytilmagan yashirin ma‘no, kinoya, tagma‘no va muallifning baholovchi munosabatini ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Do‘smuradova Y. Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari // O‘zbek tilining xorijda o‘qitilishi: ta‘lim nazariyasi va amaliyoti. – 2024. – 1(01). – B. 31–34.
2. Hasanov S. Hozirgi o‘zbek va ingliz nasrida intermatn hodisasi talqini: Isajon Sulton, Bahodir Qobul va Kazuo Ishiguro asarlari misolida: filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Samarqand, 2025. – B. 12.
3. Кадирова Х.Б., Мамедов Х.В. Сопоставительный анализ икс-femik xarakterdagi azerbayjon, turk va o‘zbek og‘izlangan hamda og‘izlanmagan maqol va matallari // SAI. – 2024.
4. Muzafarova L. Bilim tuzilmalarining badiiy intertekstuallik ko‘lamida konseptuallashuvi (J.D. Selinjer asarlari misolida): filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 25 b.
5. Пьеге-Гро Н. Введение в теорию интертекстуальности / пер. с фр.; общ. ред. и вступ. ст. Г.К. Косикова. – Москва: Издательство ЛКИ, 2008. – 87 с.